



Improving the mechanism for managing innovative processes in schools

Gulchekhra KISTABAEVA¹

National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloniy

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form

5 September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online

25 October 2025

Keywords:

innovation,
school education,
management mechanism,
pedagogical technology,
digitalization,
creative thinking,
strategic planning,
monitoring and evaluation,
staff capacity,
international experience.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of effective management of innovation processes in the school education system. To improve educational quality, cultivate students as creative, independent thinkers, and develop knowledge and skills that meet modern requirements, it is crucial to manage innovation processes deliberately and strategically. The article examines the scientific and theoretical foundations for implementing innovation, the mechanisms for organizing innovation activities, and pathways to achieve efficiency. It highlights key factors such as strategic planning, capacity building for teaching staff, the use of modern information and communication technologies, and the introduction of monitoring and evaluation systems into the educational process. Drawing on advanced international experience, the article analyzes ways to improve innovation management and offers recommendations for adapting these practices to the context of Uzbekistan's school education. The findings indicate that scientifically grounded management of innovation processes enhances school effectiveness, expands opportunities to prepare students as competitive professionals, and strengthens the national education system's prestige internationally.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss10/S-pp249-255>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Independent Researcher, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloniy.

Maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

innovatsiya,
maktab ta'limi,
boshqaruv mexanizmi,
pedagogik texnologiya,
raqamlashtirish,
kreativ tafakkur,
strategik rejalashtirish,
monitoring va baholash,
kadrlar salohiyati,
xalqaro tajriba.

Mazkur maqolada maktab ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish masalalari keng yoritilgan. Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni kreativ va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish uchun innovatsion jarayonlarni to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada innovatsion jarayonlarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, ularni tashkil etish mexanizmlari hamda samaradorlikka erishish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, maktablarda innovatsion boshqaruvni amalga oshirishda strategik rejalashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim jarayonida monitoring va baholash tizimini joriy etish kabi muhim omillar ko'rib chiqilgan. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida innovatsion boshqaruvni takomillashtirish yo'llari tahlil etilib, ularni O'zbekiston maktab ta'limi sharoitiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarni ilmiy asoslangan holda boshqarish maktablarda ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi va milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlaydi.

Совершенствование механизма управления инновационными процессами в школе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

инновация,
школьное образование,
механизм управления,
педагогическая
технология,
цифровизация,
креативное мышление,
стратегическое
планирование,
мониторинг и оценка,
кадровый потенциал,
международный опыт.

В данной статье подробно освещаются вопросы эффективного управления инновационными процессами в системе школьного образования. Сегодня для повышения качества образования в школах, формирования учащихся как креативных и самостоятельных личностей, а также развития их знаний и навыков в соответствии с требованиями времени, важно правильно управлять инновационными процессами. В статье анализируются научно-теоретические основы внедрения инновационных процессов, механизмы их организации и пути достижения эффективности. Кроме того, рассматриваются такие важные факторы, как стратегическое планирование, повышение потенциала педагогических кадров, использование современных информационно-коммуникационных технологий, внедрение системы мониторинга и оценки в образовательный процесс. На основе передового зарубежного опыта проанализированы пути

совершенствования инновационного управления и даны рекомендации по их адаптации к условиям школьного образования Узбекистана. Результаты исследования показывают, что научно обоснованное управление инновационными процессами повышает эффективность образования в школах, расширяет возможности подготовки учащихся как конкурентоспособных кадров и укрепляет авторитет национальной системы образования на международной арене.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan umumiy o'rta ta'lim maktablarida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish masalasi dolzarbligicha qilmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, kreativ tafakkurli, tashabbuskor shaxslarni tayyorlash uchun maktab faoliyatini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktablarda innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish nafaqat ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi, balki mamlakatning kelajak taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti ta'limning sifat darajasi bilan bevosita bog'liqdir [1].

Innovatsion jarayonlar o'z mazmuniga ko'ra, yangicha pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan metodlarni qo'llash, raqamli vositalardan foydalanish, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi esa ularni boshqarish mexanizmlarining mukammalligi va uzluksiz takomillashtirib borilishiga bog'liqdir. Shu bois, maktab rahbariyati va pedagoglar oldida turadigan muhim vazifalardan biri innovatsion jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish hisoblanadi [2].

Maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarishda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, pedagogik kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi yetarli darajada emasligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ayrim cheklovlar, o'quv dasturlarining to'liq yangilanmaganligi, monitoring va tahlil tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi shular jumlasidandir. Bu holat ta'lim sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion faoliyatni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati ham mavjud [3].

Shu bois, maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarish masalasini chuqur ilmiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ham maktablarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni samarali hal qilish yo'llarini taklif qilishdan iboratdir. Shu yo'l bilan maktab ta'limida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

METOD

Mazkur tadqiqotda maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda o'rganish uchun bir qator metodlardan foydalanildi. Eng avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda taqqoslash, tahlil, umumlashtirish va sistematik yondashuv metodlari qo'llandi. Bu metodlar yordamida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarning mohiyati, ularning samaradorlikka ta'siri hamda boshqaruv mexanizmlarining afzallik va kamchiliklari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion jarayonlarni tashkil etishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadida qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy qismi uchun pedagoglar, maktab rahbarlari va o'quvchilar o'rtasida suhbat va so'rovnomalar tashkil etildi. Bu jarayon maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarishda uchraydigan muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha real takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi. So'rovnomalar natijasida o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga bo'lgan tayyorgarligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, metodik salohiyatining rivojlanganlik ko'rsatkichi hamda o'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitiga moslashuvchanligi baholandi [4].

Shuningdek, monitoring va diagnostika metodlari ham tadqiqot jarayonida muhim o'rin tutdi. Maktablarda joriy qilingan innovatsion jarayonlarning samaradorligi, ularning o'quvchilarning bilim sifati va ijodiy faoliyatiga ta'siri muntazam ravishda kuzatildi va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Statistik tahlil metodlari yordamida olingan ma'lumotlar innovatsion jarayonlarning ta'lim sifatiga yaqqol ta'sirini aniqlashga imkon berdi [5].

Tadqiqotda induksiya va deduksiya metodlari ham keng qo'llanildi. Xususan, ayrim maktablarda kuzatilgan innovatsion jarayonlarni umumlashtirish orqali umumiy nazariy xulosalar chiqarildi, shuningdek, nazariy g'oyalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek tizimli yondashuv metodidan foydalanilib, innovatsion jarayonlarni boshqarishning barcha elementlari – rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring, natijalarni baholash va takomillashtirish bosqichlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi [6].

Metodologik asos sifatida UNESCO, OECD, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning innovatsion ta'lim bo'yicha konseptual yondashuvlari o'rganildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini raqamlashtirish va modernizatsiya qilishga oid qaror va farmonlari ham tadqiqot metodologiyasining muhim huquqiy manbasi sifatida xizmat qildi [7].

Umuman olganda, qo'llangan metodlar maktab ta'limida innovatsion jarayonlarni chuqur o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktablarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali mexanizmlari ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishda hamda o'qituvchilarning metodik malakasini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. So'rovnomalar va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, maktablarda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishda bir necha omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birinchidan, rahbar kadrlarning strategik yondashuvi va innovatsion boshqaruvga bo'lgan tayyorgarligi yuqori bo'lsa, maktab jamoasi ham yangiliklarni tezroq qabul qiladi va ularni amaliyotga tatbiq etadi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va raqamli texnologiyalarni qo'llash malakasi yetarli bo'lsa, o'quvchilarning bilim sifati sezilarli darajada oshadi. Uchinchidan, innovatsion jarayonlarni monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash tizimining mavjudligi ta'lim sifatini muntazam rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar shundan iboratki, ayrim maktablarda o'qituvchilar innovatsion metodlarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu, asosan, metodik qo'llanmalarning yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasining pastligi va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va ularni qayta tayyorlash dasturlariga alohida e'tibor qaratish zarur [8].

Maktablarda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

➤ **Strategik boshqaruvni kuchaytirish.** Innovatsion jarayonlar maktab rivojlanishining umumiy strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Shu orqali innovatsiyalar bevosita ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi.

➤ **Pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish.** Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda malakali kadrlar muhim o'rin tutadi. Doimiy seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslari orqali pedagoglarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.


➤ **Raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish.** Elektron darsliklar, onlayn platformalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va ta'limni individuallashtirish imkonini beradi.

➤ **Monitoring va baholash tizimini rivojlantirish.** Innovatsion jarayonlarning samaradorligini muntazam ravishda baholab borish, ularning ta'lim sifati va o'quvchilarning yutuqlariga ta'sirini aniqlash orqali kelgusi faoliyatni yanada takomillashtirish mumkin.

➤ **Hamkorlik va tajriba almashish.** Maktablar o'rtasida hamda xalqaro miqyosda hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni o'rganish innovatsion jarayonlarni boyitadi va keng imkoniyatlar yaratadi [9].

Shuningdek, xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda ta'limning individuallashtirilishi, kreativ muhit yaratish, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish muhim omil hisoblanadi. Masalan, rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilayotgan STEAM-ta'lim modeli nafaqat fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi, balki o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ushbu tajribani O'zbekiston maktablarida qo'llash imkoniyati mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim yo'llaridan biridir [10]. Bu borada ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'unlikda olib borilgan chora-tadbirlar maktab ta'limini milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh darajaga olib chiqadi.



1-rasm. Maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillar taqsimoti.

Yuqorida keltirilgan diagramma maktablarda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib bermoqda. Unda to'rtta muhim yo'nalish: pedagogik texnologiyalarni joriy etish (35%), raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish (30%), kadrlar malakasini oshirish (20%) hamda monitoring va baholash mexanizmlarini yo'lga qo'yish (15%) ajratib ko'rsatilgan.

Diagrammadan ko'rinadiki, eng katta ulushni pedagogik texnologiyalarni joriy etish egallaydi. Bu holat innovatsion ta'lim jarayonining asosi sifatida yangi metod va yondashuvlarni tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari ikkinchi o'rinda turib, zamonaviy ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalari muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Kadrlar malakasini oshirishning 20% ulushi innovatsion jarayonlar samaradorligi bevosita pedagoglarning bilim va ko'nikmalariga bog'liq ekanligini anglatadi. Monitoring va baholashning 15% ko'rsatkichi esa, bu jarayonlar innovatsiyalarni amalda nazorat qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vosita bo'lishini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, diagramma maktablarda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish uchun bir necha yo'nalishlarning uzviy bog'liqligini ochib beradi. Pedagogik texnologiyalar va raqamlashtirish asosiy omil bo'lib, ular kadrlar salohiyati va monitoring tizimi bilan uyg'unlashgan taqdirdagina kutilgan samarani beradi. Shu bois, tahlil shuni ko'rsatadiki, maktablarda innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktab ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va pedagoglarning metodik imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi

ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyati, avvalo, ularni boshqarish mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi, tizimlilik va samaradorligiga bog'liqdir.

Maktabda innovatsion jarayonlarni boshqarishda strategik yondashuv, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish hamda ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar uyg'unlikda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga va ta'lim sifatini milliy hamda xalqaro talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, ayrim maktablarda innovatsion jarayonlarni boshqarishda pedagoglarning tayyorgarlik darajasi, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik holati va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarida muammolar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etish, metodik qo'llanmalar bazasini kengaytirish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuslarini rag'batlantirish va maktablarni zamonaviy raqamli resurslar bilan ta'minlash zarur.

Ilmiy-nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, kreativ yondashuv va ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, maktab ta'limining milliy modelini xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirish orqali innovatsion boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Demak, maktab ta'limida innovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga, yosh avlodni raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlashga va mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anderson, T. (2018). The theory and practice of online learning (3rd ed.). Athabasca University Press.
2. Fullan, M. (2020). Leading in a culture of change (2nd ed.). San Francisco: Jossey-Bass.
3. Hargreaves, A., & Shirley, D. (2019). Leading from the middle: Educational leadership for the 21st century. Harvard Education Press.
4. OECD. (2017). Innovative learning environments. OECD Publishing.
5. UNESCO. (2021). Educational innovation and reform: Global perspectives. UNESCO Publishing.
6. World Bank. (2021). Education strategy 2030: Learning for all. Washington, DC: World Bank.
7. Ziyayeva, D. (2019). Pedagogik texnologiyalar va ularning tatbiqi. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Karimov, A. (2021). Raqamli ta'lim va boshqaruv mexanizmlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
9. Mirzayeva, G. (2022). Maktab ta'limida pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: O'qituvchi.
10. Khodjayeva, N. (2020). Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.